Dastlabki ma'lumotlar

# 2020- yilning yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyatining qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2020- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 4 533,7 mlrd. so‘mni yoki 2019- yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 4 334,1 mlrd. so‘mni (103,7 %), o‘rmon xo‘jaligi – 144,0 mlrd. so‘mni (101,4 %), baliq xo‘jaligi – 55,6 mlrd. so‘mni (108,6 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarkibida Navoiy viloyatining ulushi 4,7 % ni tashkil etdi.




**4 533,7** — Navoiy viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m



01 — **4 334,1** — Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02 — **144,0** — O‘rmon xo‘jaligi

03 — **55,6** — Baliq xo‘jaligi

## Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati




## Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2020- yilning yanvar-iyun yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 95,6 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 3,2 % i – o‘rmon xo‘jaligi, 1,2 % i – baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2020- yilning yanvar-iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Xatirchi (1 323 mlrd. so‘m), Qiziltepa (852 mlrd. so‘m) va Navbahor (730 mlrd. so‘m) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Zarafshon shahri (24 mlrd. so‘m), Navoiy shahri (35 mlrd. so‘m) va Uchquduq tuman (142 mlrd. so‘m)larini keltirib o‘tish mumkin.

Yuqori o‘sish sur’atlari Qiziltepa (106,6 %), Uchquduq (105,5 %), Tomdi (104,7 %), Navbaxor tumanlarida (104,6 %), Navoiy shahri (104,5 %), Karmana (104,4 %), Nurota (104,1 %), Konimex (102,0 %) va Xatirchi (101,3 %) tumanlarida, aksincha Zarafshon shahrida (88,0 %) esa o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2020- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 4 327,6 mlrd. so‘mni yoki 2019- yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 1 187,7 mlrd. so‘mni (104,9 %), chorvachilik mahsulotlari – 3 139,9 mlrd. so‘mni (103,2 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining tumanlar kesimida taqsimlanishi (%)




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 80,6 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 15,4 % i – fermer xo‘jaliklariga, 4,0 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tumanlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




2020- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qiziltepa tumanida (25,0 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Zarafshon shahri da (94,9 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Navoiy shahrida (54,4 %) qayd etildi.

## Dehqonchilik

2020-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 1 187,7 mlrd. so‘mni yoki 2019- yilning mos davriga nisbatan 104,9 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 27,4 % ni tashkil qildi.

## Donli ekinlar

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2020- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 175,6 ming t. don (2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 6,3 % ga ko‘p) yetishtirildi. Don yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiy hajmidan 84,9 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Navoiy viloyati bo‘yicha don ekinlar yetishtirish hajmi, tonna



# Kartoshka

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 54,5 ming t. kartoshka (2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 2,7 % ga ko‘p) yrtishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 94,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna



# Sabzavotlar

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 64,6 ming t. sabzavotlar (2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 5,5 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 84,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna



# Poliz

**Hajmi, ming t.**




**O'sish sur'ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xoʻjaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 7,7 ming t. poliz (2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 4,5 % ga koʻp) yetishtirildi. Poliz yetishtirish koʻrsatkichlarini xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlil qilinganda, poliz yetishtirish umumiy hajmidan 83,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri kelishini koʻrsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha poliz ekinlari yetishtirish hajmi, tonna



# Meva va rezavorlar

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2020- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 42,3 ming t. meva va rezavorlar (2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 5,4 % ga ko‘p) yetishtirildi. Meva va rezavolar yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, meva va rezavorlar yetishtirish umumiy hajmidan 64,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, tonna



# Uzum

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2020- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 1,5 ming t. uzum (2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 8,6 % ga ko‘p) yetishtirildi. Uzum yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, uzum yetishtirish umumiy hajmidan 69,3 % i fermer xo’jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna



## Chorvachilik



2020- yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 3 139,9 mlrd. so‘mni yoki 2019- yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 72,6 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh soning ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2020- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 72,3 ming t. go‘sht (2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 3,7 % ga ko‘p), 209,2 ming t. sut (2,4 % ga ko‘p), 179,3 mln. dona tuxum (4,5 % ga ko‘p), ishlab chiqarildi va 3 936 t. baliq (5,0 % ga ko‘p) ovlandi.

# Go‘sht *(tirik vaznda)*

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2020- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 72,3 ming t. go‘sht (2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 3,7 % ga ko‘p) yetishtirildi. Go‘sht yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht yetishtirish umumiy hajmidan 90,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Navoiy viloyati bo‘yicha go‘sht *(tirik vaznda)* yetishtirish hajmi, tonna



# Sut

Hajmi, ming t.




O‘sish sur’ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 209,2 ming t. sut (2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 2,4 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 93,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha sut yetishtirish hajmi, tonna



# Tuxum

**Hajmi, mln. dona**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 179,3 mln. dona tuxum (2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 4,5 % ga ko‘p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 74,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha tuxum yetishtirish hajmi, ming dona



# Baliq

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2020- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 3 936 t. (2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 5,0 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 76,5 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.



## Navoiy viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2020- yining 1- iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,4 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 90,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 2,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 26,7 % i fermer xo‘jaliklariga, 61,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 11,6 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g’ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 9,9 % i fermer xo‘jaliklariga, 68,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 21,9 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2020- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 476,9 ming taga yetdi.

2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 9,1 ming taga (1,9 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 90,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.

## Navoiy viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



2020- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 200,3 ming taga yetdi.

2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 1,0 ming taga (0,5 %) ko‘paydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2020- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 93,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2020- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 299,9 ming taga yetdi.

2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 1,0 ming taga (3,2 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**





2020- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 61,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2020- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 20 242 taga yetdi.

2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 527 taga (2,7 %) ko‘paydi.

## Otlar

**Soni, bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 58,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2020- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 2 971,7 ming taga yetdi.

2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 254,2 ming taga (9,4 %) ko‘paydi.

## Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2020- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 68,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi

- 79- 223-23-40
- 79- 222-04-43